

BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARI NUTQ KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV**Boymurodova Sarvinoz Saparali qizi***Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Boshlang‘ich sinfi o‘quvchilari nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda kommunikativ yondashuv o‘ziga xos ahamiyatga ega. Hozirgi zamonaviy pedagogikada til o‘rganish jarayonida faqat grammatik bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki o‘quvchilarda hayotiy vaziyatlarga mos tarzda hamjamiyatda samarali muloqot qiladigan, mustaqil ravishda fikrlash va fikr almashish ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Yosh avlodda tilning tirik va jonli muhitda o‘zlashtirilishi ularning nutqiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun juda muhimdir. Shu jihatdan, kommunikativ yondashuvning boshlang‘ich sinfi o‘quvchilari uchun ahamiyatini umumlashgan, amaliy misollar va ilmiy tahlillar asosida yoritib berish maqsadga muvofiqdir.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinfi, nutq ko‘nikmasi, kommunikativ yondashuv, muloqot, og‘zaki nutq, til o‘rgatish, faol usullar, rolli o‘yinlar, bahs-munozara, interaktiv dars.*

Аннотация: *Коммуникативный подход имеет особое значение в развитии речевых навыков у учащихся начальной школы. В современной педагогике одной из приоритетных задач является не только овладение грамматическими знаниями в процессе изучения языка, но и формирование у учащихся навыков самостоятельного мышления и обмена идеями, эффективного общения в сообществе в соответствии с жизненными ситуациями. Для молодого поколения освоение языка в живой и динамичной среде имеет решающее значение для развития их речевой деятельности. В этом отношении целесообразно осветить важность коммуникативного подхода для учащихся начальных классов на основе обобщенных, практических примеров и научного анализа.*

Ключевые слова: *начальная школа, речевые навыки, коммуникативный подход, общение, устная речь, преподавание языка, активные методы, ролевые игры, дебаты, интерактивный урок.*

Abstract: *The communicative approach is of particular importance in developing speaking skills in primary school students. In modern pedagogy, the priority is not only to master grammatical knowledge in the process of language learning, but also to develop students' skills in independent thinking and exchanging ideas, effectively communicating in a community in accordance with life situations. For the younger generation, acquiring a language in a living and vibrant environment is essential for the development of the ir*

speech activities. In this regard, it is advisable to highlight the importance of the communicative approach for primary school students based on generalized, practical examples and scientific analysis.

Keywords: *primary school, speaking skills, communicative approach, communication, oral speech, language teaching, active methods, role-playing games, debate, interactive lesson.*

O‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish, avvalo, ularni hayotiy muhitda o‘z fikrlarini ifoda eta olish, tengdoshlari va katta yoshdagilar bilan erkin muloqot qilishi, o‘z fikr va qarashlarini asoslashga olib keladi. Kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o‘qituvchi o‘quvchilarga mustahkam bilim berish, ularning dunyoqarashi, tafakkuri, mulohaza yuritish qobiliyatlarini kengaytirish orqali til va nutq o‘rtasida uzviy bog‘liqlik hosil qiladi. Dars jarayonida o‘quvchilarning har biri faol ishtirokchi sifatida baholanadi, ularga mustaqil ravishda muloqot qilishi, o‘z fikrini bildirishi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Bunday yondashuv natijasida bolalar hayotiy muammolarni tahlil qilish, ularni mustaqil va guruh bo‘lib hal etish, murakkab so‘z va iboralarni to‘g‘ri o‘rganish va jonli gapda so‘zlashish imkoniga ega bo‘ladi. O‘quvchilar nutqiy ko‘nikmalarining rivojlanishi uchun kommunikativ yondashuv asosida darslarni tashkil etishda bir qator metodlardan foydalanish lozim. Masalan, rolli o‘yinlar, muloqotli topshiriqlar, bahs-munozaralar, matn ustida ishlash, savol-javob, suhbat, hikoya qilish va dialoglar orqali dars jarayoni jonlantiriladi. Har bir metodning asosiy maqsadi bolalarning o‘z fikrini erkin ifoda etishi, til tizimini amaliyotda qo‘llay bilishidir. O‘qituvchi dars jarayonida bolalarni tinglaydi, ularning fikrini qadrlaydi, ehtiyojlarini hisobga oladi, rag‘batlantiradi, tushunmagan yoki noto‘g‘ri ifoda etgan joylarini yumshoq tarzda to‘g‘rilaydi. Bu jarayonda, avvalo, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini e‘tiborga olish, ularning qiziqish va ehtiyojlariga mos topshiriqlar tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tilga oid bilimlarni faqatgina darslik orqali emas, balki jonli suhbatlar, ijtimoiy faoliyat, real hayotiy vaziyatlar asosida shakllantirish lozim. O‘quvchilarga og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri, aniq va lo‘nda fikr bildirish, o‘qigan yoki eshitganini mustaqil tarzda sharhlash, o‘rtoqlari bilan erkin fikr almashish imkonini beradigan topshiriqlar asosiy o‘rin tutadi. Bundan tashqari, kommunikativ yondashuvda o‘quvchilar mustaqil so‘zlash va tinglash ko‘nikmalariga ega bo‘lib boradi. O‘qituvchi esa bolalar o‘rtasida erkin muloqot muhitini yaratish hamda o‘zaro hurmat, hamkorlik, do‘stlik asosida ishlashga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ishlarni olib boradi. Yana bir muhim jihat shundaki, kommunikativ yondashuv orqali o‘quvchilarda madaniy, ahloqiy va axloqiy qadriyatlar shakllanadi. Chunki bolaning o‘z fikrini to‘g‘ri ifoda eta olishi, so‘zlashganda odob saqlashi, eshikdan kirganda ham

salomlashishi, so‘roqqa munosib javob qaytarishi, o‘z navbatini kutishi va o‘rtoqlarining so‘ziga hurmat bilan yana javob berishi uning nutqiy barkamolligiga xizmat qiladi. Bu esa keyinchalik o‘quvchilarning jamiyatda, muayyan ijtimoiy guruhlarda mustaqil va faol ishtirokchi bo‘lib yetishishida muhim ahamiyatga ega. Aynan kommunikativ yondashuv asosida olib borilgan til o‘rgatish darslari o‘quvchilar tilini boyitadi, ularni o‘z fikrini qisqa va lo‘nda yetkazishga o‘rgatadi va faol, mustaqil, zamonaviy fikrli shaxs bo‘lib shakllanishiga asos soladi. Nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘qituvchi darsdan tashqari faoliyatlar, ya‘ni sahna ko‘rinishlari, masalalar, rasmlar asosida hikoya tuzish, ertak aytish, kundalik voqealarni gapirish orqali ham o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini faol qo‘llab-quvvatlashi kerak. Ko‘plab ijtimoiy loyihalar, fan olimpiadalari, nutq bellashuvlari orqali bolalarni rag‘batlantirish, ularni ko‘proq so‘zlashga, erkin fikr bildirishga o‘rgatish ham kommunikativ yondashuv samaradorligini oshiradi. Shuningdek, bolalarni kichik guruhlarga bo‘lib, ularga birga ishlash, muloqot qilish, jamoada harakat qilish qobiliyatini o‘rgatish muhimdir. Natijada, o‘quvchilarda bir-biri bilan fikr almashish, muammoni birga hal qilish, har birining fikriga quloq tutish ko‘nikmasi rivojlanadi [1].

Ahamiyatli jihatlardan biri shundaki, kommunikativ yondashuv asosida o‘quvchilarning ona tilini o‘rganish istagi ortadi. Chunki har bir bola jonli muloqot qilish va o‘z fikrini boshqalarga yetkazishda o‘zini ko‘rsatadi, natijada mustaqil fikrlaydi, mustaqil so‘zlaydi, batartib jumlar tuzadi, yangi so‘zlarni tez o‘zlashtiradi, ifoda erkinligi rivojlanadi. Yuqoridagilarning barchasi tilshunos olimlar va amaliy pedagoglar tomonidan ham o‘z isbotini topgan. Darslarda zamonaviy kommunikativ vositalardan foydalanish, internet-resurslar, video materiallar, audio eshittirishlardan foydalanish ham o‘quvchilarning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. Asosiysi, bolalar o‘rtasida erkin, iliq va o‘zaro ishonchli muhit yaratilsa, ular so‘zlashdan, muloqotdan zavq olishadi [2].

Har bir bola nutqi tabiatan har xil rivojlanadi. Shuning uchun pedagog har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda individual yondashishi, nutqiy nuqsoni yoki kamchiliklari bor o‘quvchilar bilan alohida, sabr-toqatli, ijobiy rag‘batlantirish usullarida ishlashi kerak. Kommunikativ yondashuvda o‘qituvchi asosiy motivator, tashkilotchi va yordamchi sifatida rol o‘ynaydi. Bola biron-bir topshiriqda xato qilsa, bu darrov to‘g‘rilanmaydi, avvalo bola natijani o‘zi tushunishi, nuqsonni his qilishi va keyin mustaqil tuzatishga harakat qilishi uchun sharoit yaratiladi. Shunda ularni anglash tuyg‘usi, javobgarlik hisi shakllanadi va natija sifatli bo‘ladi. Til va nutq taraqqiyotida mehrli muhit va do‘stona atmosfera ham katta ahamiyatga ega. O‘qituvchining har bir so‘zi, har bir harakati va intonatsiyasi bolaning nutqiy rivojlanishiga ta’sir etishini unutmaslik kerak. Agar sinfda o‘zaro hurmat, daddyqotni bo‘g‘uvchi muhit bo‘lsa, bolalar erkin so‘zlasholmaydi va nutq rivoji sustlashib qoladi. Shuning uchun ota-onalar va o‘qituvchilar

o‘rtasida yaqin hamkorlik, bolalarning har bir nutqiy faoliyatini doimiy ravishda rag‘batlantirish, ularga har doim qulay muhitni ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bolalar ba‘zan o‘z fikrlarida chalkashib, to‘liq, tushunarli gap tuza o‘lmaydi. Bunday hollarda o‘qituvchi sabr-toqat bilan bola fikrini to‘g‘ri yo‘naltirishi, unga so‘z-boyligini oshirish uchun qiziqarli o‘yin, ertak, hikoyalar orqali nutqini rivojlantirishi mumkin. Bola yangi so‘zlarni misol va o‘xshatish, dialog va jamoaviy ishlarda ko‘proq qo‘llash orqali hayotiy harakat qiladi va ham o‘zining til imkoniyatini tekshirib ko‘radi, ham nutqiy faoliyatini kuchaytiradi [3].

Bugungi kunda kommunikativ yondashuv boshlang‘ich sinf darslarining ajralmas bir qismiga aylanib bormoqda. Bu yondashuv asosida olib borilgan barcha tadbir va darslar natijasida o‘quvchilar ilm-fan yutuqlarini ham hayotga, ham amaliyotga tatbiq qilishga o‘rgatiladi. Ular faqat maktabda emas, balki uyda, mahallada, do‘stlari orasida, oilada ham muloqot qilishni yaxshi o‘zlashtiradi. O‘qituvchilar har bir topshiriq, har bir mavzudan so‘ng o‘quvchilarga o‘z hayotlaridan misollar keltirish, suhbat qurish, savollar berish kabi topshiriqlardan foydalanadi, natijada bolalar o‘z fikrini ishonch bilan bayon qiladi. O‘quvchilarning nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda kommunikativ yondashuvdan maksimal darajada samarali foydalanish uchun sinf qulayligi, darslik va qo‘llanmalarning zamonaviyligi, texnologik vositalar va boshqa innovatsion manbalarning yetarliligi ham katta ahamiyatga ega. Darsda turli interaktiv usullar, ilg‘or o‘qituvchilarning tajribasi, zamonaviy instruktsiyalar asosida ish yuritilsa, natija yanada yuqori bo‘ladi [4].

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kommunikativ yondashuv asosida nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish milliy maktab tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Zero, bugungi globallashtirish jarayonida har bir bola nafaqat o‘z tilini, balki boshqa tillarni ham mukammal egallash, hayotda boshi baland yuradigan, mustaqil va zamonaviy fikrli inson bo‘lib yetishishi uchun avvalo nutqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi darkor. Bu jarayon esa faqatgina yaxshi tashkil etilgan, kommunikativ yondashuv asosida dars olib boradigan, mehribon va pedagogik ustozlar rahbarligida amalga oshiriladi. Faol, o‘z fikrini ochiq ayta oladigan, zamonaviy bilimlarni hayotga tatbiq eta oladigan yosh avlod tarbiyasida kommunikativ yondashuv asosiy asoslardan biri sifatida doimo e‘tibor markazida bo‘lishi kerak. Nutq ko‘nikmalari yosh bolalarda asta-sekinlik bilan, muloqot, eshitish, o‘qish, yozish, so‘z boyligini oshirish orqali rivojlanadi. O‘qituvchilar va otalar hamkorligida bola nutqidagi nuqson va kamchiliklarni erta aniqlash, ularni bartaraf etishda zamonaviy vositalar va ilg‘or metodlar orqali muammolarni hal qilish mumkin. Eng asosiysi, har bir bola o‘z shaxsiy qadr-qimmatini his etib, jamiyatda o‘z o‘rnini topadigan darajada mukammal nutq sohibi bo‘lib yetishishi uchun barcha imkoniyatlar safarbar

qilinishi muhimdir. Ana shundagina, taraqqiyot sari intilayotgan mamlakatimizda til va nutq madaniyati yuksak darajaga ko‘tariladi va har bir bola o‘z ona tilida, chet tillarida ham erkin, to‘g‘ri so‘zlay oladigan zamonaviy inson bo‘lib ulg‘ayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Maktabgacha ta’lim-tarbiya to’g’risida“gi Qonun,-T.;O‘zbekiston. 2020 y.
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, M.A'zamova. “Maktabgacha pedagogika”. - T.,”Ma’naviyat”.2013
3. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogika.T.; O‘qituvchi, 1993.
4. Xasanboeva O.U. va boshqa. Maktabgacha ta’lim pedagogika .T.; Ilm ziyo. 2006.
5. Sh.Sodiqova “Maktabgacha pedagogika”. ”Tafakkur sarchashmalari” T.: 2013 y.
6. N.M.Kayumova “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashiroti T.; 2013 y
7. Volotina L.R. Doshkol“naya pedagogika M. Lavirint. 2005y.